



## TIL HODISASI – “OKKAZIONALIZM” HAQIDA MULOHAZALAR

**Madazizova Dilafruz Xabibiloyevna,**

Farg'ona davlat universiteti, chet tillari fakulteti katta o'qituvchisi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada til hodisalaridan biri bo'lgan "okkazonializm" haqida so'z yuritilgan. Unda, atamaning kelib chiqishi, uning talqini, va tilshunoslarning bunday nutq hodisasiga munosabatlari bayon etilgan. Shu bilan birga, mavzu yuzasidan izlanish olib borgan tilshunoslar nomlari ham tilga olingan.

**Kalit so'zlar:** okkazonializm, tasodufiy, neologizm, individual mualliflik, ma'nodorlik, expressivlik, emotsional rang.

Jamiyat sohalarining jadal rivojlanishi tilning leksik qatlamlarini rivojlantirib, uning yangilanib borishiga ham sabab bo'lmoqda. Asta-sekinlik bilan hozirgi zamonning ozod, erkin tili vujudga kelmoqda. Darhaqiqat, erkin va ozod tilning natijasi esa okkazonial so'zlarning vujudga kelishiga zamin yaratmoqda. Davrning bunday hodisasi tilshunos E. A. Zemskaya tomonidan quydagicha baholangan: "XX-asrning oxiri va XXI-asr boshlari ba'zan "okkazonializm davri" deb ham ataladi"

Vikipediya lug'atidagi izohga ko'ra "okkazonializm" atamasi—lotincha "occasio" so'zidan kelib chiqib o'zbek tilida - "tasodifiy" degan ma'noni anglatadi. Bu hodisa asosan yozuvchi yoki shoirlar tomonidan tilda mavjud so'z yasash modellari asosida yaratiladigan va faqat ma'lum bir kontekstda badiiy ifoda yoki til o'yinlarining leksik vositasi sifatida ishlatiladigan individual mualliflik neologizmlardir" deb tavsiflangan. Odatda okkazonializmlar keng tarqalmagan va tilning lug'at tarkibiga kirmaydilar.

Okkazonial so'zlar etimologiyasiga e'tibor qaratilsa, u ilk bor 1880-yilda nemis filologi G. Paul tomonidan asoslab berilgan. "Okkazonial" atamasidan esa birinchi bo'lib xorij tilshunosi Rosaliya Shor o'zining "Til va jamiyat" kitobida "okkazonial iboralar" sifatida qo'llagan. Shundan so'ng, ya'ni 1957 yilda yana bir xorij tilshunosi N. I. Feldman o'zining "Okkazonial so'zlar va leksikografiya" nomli maqolasida "okkazonializm" atamasidan foydalangan.

Tilshunos T.V.Popova okkazonial so'zlarni qo'ydagicha izohlaydi: "Okkazonial so'zlar -"bir martalik" leksik birlik bo'lib, takrorlanish imkoniyatidan mahrum, shuning uchun ham uning tarixiy mavjudlik darajasiga ko'ra, bu so'z eskirishga qodir emas, neologizm va arxaizm tushunchalari esa bu tushunchaga ziddir."Popovaning bunday izohidan shuni tushunish mumkinki, okkazonial so'zlar so'zlovchi tomonidan ma'nodorlik va expressivlikni oshirish maqsadida ilk va oxirgi marta qo'llaniladida so'ng g'oib bo'ladi.

Okkazonializm mavzusi doirasida bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Ayniqsa, V.V.Vinogradov, A.G.Gornfeld, I.I.Sreznevskiy, N. I. Feldman, G. E. Goncharenko, V. P. Kovalev, L. P. Pavlenko, O. A. Stishov, O. M. Dorofeeva, O. I. Aleksandrova, G. O. Vinokur, O. A. Gabinskaya, E. A. Zemskaya, V. V. Lopatin, A. G. Likov, M. S. Maleeva, R. Yu. Namitokova, A. I. Smirnitkiy, I. S. Uluxanov

tomonidan olib borilgan izlanishlar diqqatga sazovor. Lekin tadqiqotlar ko'lamining kengligiga qaramay, okkazionalizm uchun yagona, umume'tirof etilgan nazariya qabul qilinmagan. Olib borilgan tadqiqotlarda okkasion so'zlarning turli jihatlari yoritilgan, ya'ni tilshunoslarning bir qismi ularning shakllanishi jihatlari, boshqalari leksikologik xususiyatlarini, yana bir guruh tadqiqotchilar uning sotsiolingvistik jihatlari o'rgangan bo'lishsa, yana bir qator olimlar ularning badiiy matndagi vazifalariga alohida e'tibor qaratishgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, lingvistik adabiyotlarda okkazializmning bir qancha belgilari mavjud: mualliflik neologizmlari, stilistik neologizmlar, individual neologizmlar, she'riy yangi shakllanishlar, nutqning yangi shakllari, kontekstual shakllanishlar va boshqalar.

Tilshunos O.S.Axmanova "Tilshunoslik atamaları lug'ati"da okkazional so'zlarni quyidagicha talqin etadi: "Okkazional (so'z, ma'no, ibora, tovush birikmasi, sintaktik shakllanishlar) - "noodatiy", umumfoydalanish uchun qabul qilinmagan, qo'llanishga mos kelmaydigan, individual did bilan tavsiflangan, foydalanishning o'ziga xos konteksti bilan shartlanganlardir." O. O.Selivanova esa okkasionallizm atamasini quyidagicha izohlaydi: "Okkasionallizmlar muallifning individual tiliga urg'u berib, uning nutqiga ekspressivlik, emotsional rang bag'ishlaydi va ko'pincha bunday okkazional so'zlar so'z yasashning noan'anaviy modellari bo'yicha til me'yorlarini buzgan holda yaratiladilar."

Okkazional so'zini har tomonlama tahlil qilgan birinchi tilshunos olim A. G. Likov deyish mumkin. Tilshunos ruscha okkazional so'zni kanonik so'zdan ajratishda ularni chegaralovchi bir qancha xususiyatlarini aniqladi. Uning xulosasiga ko'ra okkasionallar nutqqa mansublik, ijodkorlik (takrorlanmasligi), so'z yasash hosilasi, me'yoriy bo'lmaganlik, funktsional bir martalik, ekspressivlik, nominativ ixtiyoriylik, sinxron-diaxronik diffuziya va individual mansublik kabi xususiyatlarini ajratdi.

"Ma'lumki, tilda yangi so'zlar o'z o'zidan shakllanmaydi, ular dastlab nutqda shakllanadilar", deb yozadi tilshunos A. I. Smirnitkiy. N.A.Krylov izohida esa, "Yangi so'zlarning shakllanishi deyarli uzluksiz jarayondir, lekin barcha yangi shakllanishlar dastlab nutq faktlarini ifodalaydi va faqat tugallangan shaklda takroriy takrorlash natijasida til faktiga aylanadi."

N. G. Babenko bunday til hodisasiga shunday izoh beradi "odatiy bo'lmagan, umumiy qabul qilinmagan va faqatgina individual did bilan kontekstga mos holatda foydalanadigan so'z va iboralardir."

Tilshunoslar o'rtasida okkasionallizmlar tushunchasi haqida ikki xil qarashlar mavjud: ularning bir guruhi okkasionallizmlarni alohida so'z turkumi deb e'tirof etsalar, ikkinchi guruh neologizm va okkasionallizmlar o'rtasidagi farqni tan olmaydilar.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, okkazional so'zlar ham muloqotda sotsioleklar kabi adresatning nutqida expressivlik, ma'nodorlik, jo'shqinlikni kuchaytirish omillar bo'lib xizmat qiladi. Bu esa inson diskursini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Axmanova O. S. Slovar lingvisticheskix. – M., 2007.
2. Babenko N. G. Okkasionallnoye v xudojestvennom tekste./ Strukturno-semanticheskiiy analiz: Uchebnoye posobiye/ Kaliningrad un-t. 1997. [http: // www.gumer.info/bibliotek Buks/Linguist/Article/baben\\_okk.php](http://www.gumer.info/bibliotek/Buks/Linguist/Article/baben_okk.php)
3. Zemskaya E. A. Russkaya razgovornaya rech: lingvistitexkiy analiz I problem obucheniya.- M., 2004.

4. Krilov N. A. Tipi osnov v sovremennom russkom yazike. // Filologicheskiye nauki, 1963, № 2 str.31-35.
5. Likov A. G. Sovremennaya russkaya leksikologiya: Russkoye okkazionalnoye slovo. M., 1976.
6. Popova T. B. Russkaya neologiya I neografiya.-Yekatriningburg, 2005.
7. Selivanova O. O. Lingvisticheskaya ensiklopediya Poltava: K., 2010.
8. Feldman N. I. Okkazionalniye slova I leksikografiya// Voprosi yazikoznaniya. 1957. № 4. str. 64-73.
9. Shor P. Yazik i obshestvo. – M., 2010
10. Xabibiloyevna, M. D., & Sirojiddin o'gli, A. M. R. (2023). CLASSIFICATION OF DISCOURSE ACCORDING TO DISCIPLINE. " XXI ASRDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 1(5), 156-161.
11. Xabibiloyevna, D. M. (2023). FORMS OF DISCOURSE IN LINGUISTICS. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(6), 174-178.
12. Xabibiloyevna, M. D. (2024). The Role of Gesture in Discourse. *Miasto Przyszłości*, 45, 880-882.
13. Madazizova, D. (2023). THE SIGNIFICANCE OF TEXT AND DISCOURSE IN ENHANCING COMMUNICATIVE COMPETENCE. *Farg'ona davlat universiteti*, (6-TOM), 19-19.
14. Xabibiloyevna, D. M. (2023). Discourse and Discourse Analyses in Linguistics. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(6), 31-36.
15. Xabibiloyevna, D. M. (2023). Discourse and Discourse Analyses in Linguistics. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 2(6), 31-36.
16. Madazizova, D. X. (2021). Some Linguistic Peculiarities Of Slang. *Scientific progress*, 2(7), 1277- 1278.
17. Xabibiloyevna, M. D. (2021). The Semantic Analysis of Slang in The Movie "School". *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 3, 83-85.
18. Xabibiloyevna, M. D. (2022). THE CONCEPT OF" DISCOURSE" IN THE INTERPRETATION OF FOREIGN LINGUISTS. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 7, 89-92.
19. Xabibiloyevna, D. M. (2022). Approaches To the Interpretation of The Term "Argo". *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 5, 307-308.
20. Xabibiloyevna, D. M. (2022). VARIOUS SCIENTIFIC APPROACHES TO „SLANG“. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 303-305.
21. Madazizova, D. H. (2016). Качества, необходимые успешному преподавателю иностранного языка. *Ученый XXI века*, (5-1 (18)), 28-29.3
22. Xabibiloyevna, D. M. (2023). THE ROLE OF CONCEPT IN LINGUISTIC DISCOURSE. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(6), 73-78.
23. Abdullayev, S. (2022). ACHIEVING THE RICHNESS OF ORAL AND WRITTEN SPEECH WHEN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(06), 34-39.
24. Abdiloyev, S. O. (2023). Phraseologies In German Related To Animal Wildlife. *PERFECT EDUCATION FAIRY*, 1(1), 29-35.
25. Abdiloyev, S. O. Expression of Some Phraseological Units of Zoonyms in the Uzbek and German Languages. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*.